OLIY VA O‘RTA MAXSUS TALIM VAZIRLIGI
QO’QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ZAMONAVIY FAN VA TA'LIM-TARBIYA: MUAMMO VA YECHIMLAR

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI TO‘PLAMI

2022-yil

o‘zbek madaniyati va adabiyoti o‘rtasidagi uzoq yillik aloqa ramzi sifatida e’tiborni tortadi.

MAKTABDA ONA TILI DARSLIKLARI TADRIJI

R.B.Usmonova-ChDPU, o‘qituvchi

Annotatsiya. Maqolada ona tilining alohida fan sifatida o‘qitilishiga oid mulohazalar o‘z aksini topgan. Maktab ona tili darsliklarining tadrijiy bosqichlari aniq faktlar asosida dalillangan.

Kalit so‘zlar: jadidlar, maktab, tilshunoslik bo‘limlari, metodika, darsliklar muammosi.

Аннотация. В статье отражены комментарии по поводу преподавания родного языка как отдельного предмета. Поэтапность школьных учебников родного языка доказывается на основе конкретных фактов.

Ключевые слова: джадиды, школа, факультеты языкознания, методика, проблема учебников.

Abstract. The article reflects the comments on the teaching of the mother tongue as a separate subject. The gradual stages of school mother tongue textbooks are proven on the basis of concrete facts.

Key words: moderns, school, departments of linguistics, methodology, problem of textbooks.

XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlarida vatanimizda ona tili ta’limining jadidchilik harakati bilan bog‘liq yangi turdagi o‘zbek maktablari uchun darslik va qo‘llanmalar yaratish davri boshlandi.

Ko‘rinib turibdiki, bugungi “Ona tili” darsliklariga tamal toshini jadidlar qo‘ygan. O‘tgan asrning 30 yillarida yaratilgan “Ona tili” darsliklari, xususan, ilk “O‘zbek tili darslik”larining yaratilishiga xizmat qilgan olim Abdurauf Fitratning “O‘zbek tili qoidalari to‘g‘risida bir tajriba”, “Nahv” kitobida [1.124] leksikologiya, morfologiya, sintaksisva punktuatsiyaga oid ma’lumotlar berilgan.

Demak, o‘zbek tilini ilmiy jihatdan tadqiq etib, fanning ma’lum bir bo‘limi sifatida maxsus o‘rganilishini jadidlar boshlab bergan ekan. O‘zlari yaratgan darsliklariga maxsus bo‘lim sifatida o‘zbek tili grammatikasini o‘rganishni ham kiritganlar. Shundan keyin bir qancha tilshunos olimlar tomonidan ko‘plab darsliklar ishlab chiqildi.

1940-yilda tuzilgan “O‘rta maktab programmalari”da o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishga, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e’tibor berildi, asarni ifodali o‘qish, savol va topshiriq hamda mashqlar asosida asarning g‘oyaviy mazmunini puxta o‘zlashtirish tavsiya etildi. Sinflar bo‘yicha o‘quvchilarning yoshi va bilim saviyasiga mos asarlar tanlandi, ularni joylashtirishda didaktik talablarga rioya qilindi. Ushbu o‘tgan davrni jumhuriyatdagi iqtisodiy va madaniy qurilishda, xalq maorifi sohasida, til va adabiyotshunoslikda erishilgan yutuqlar maktab ta’lim-tarbiya ishlariga, maktab ta’limi mazmuniga til va adabiyot o‘qitish metodikasi rivojiga ta’sir etdi, metodik ishlarning yuzaga kelishini ta’minlovchi davr deb aytish maqsadga muvofiqdir.

"O'zbek tili o'qitish metodikasi" fani bilan bog'liq bo'lgan samarali usullarning barchasi 1929-yillargacha umumiy tarzda berilgan bo'lib, XX asrning 30-yillaridan boshlab ushbu soha alohida fan sifatida o'qitila boshlandi. Aynan shu davrlarga kelib ushbu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar o'z natijasini ko'rsata boshladi. Ona tili o'qitish metodikasi fan sifatida shakllangach, dastur, darslik va shu yo'nalishdagi o'quv-metodik qo'llanmalar yaratishga ehtiyoj ortdi. Dastlab S.A.Fessalonitskiyning "Ona tili metodikasi" (1940-yil) talabalar uchun o'quv qo'llanmasi nashr etildi. Mazkur qo'llanmada o'quvchilar nutqini o'stirish masalalariga katta e'tibor berildi. Kitobda o'quvchilarning so'z boyligini oshirish, badiiy asarlardan olingan matnlar ustida ishlash, insho yozish malakalarini shakllantirishga jiddiy e'tibor qaratildi. Respublikamizda 50-yillardan keyin maktablarda ona tili o'qitish masalalariga oid bir qator ishlar e'lon qilindi. Jumladan, M. Shamsning "O'zbek tili o'qituv metodikasi" (1950), F.Kamolning "O'zbek tili o'qitish metodikasi" (1952), H.Rustamovning "Sintaksis va punktuatsiya o'qitish metodikasi" (1960), N.Abduraxmonovning "O'zbek tili o'qitish metodikasi" (1969), Y.G'ulomov, I.Rasulov, X.Rustamov va B.Mirzaahmedovlarning "O'zbek tili o'qitish metodikasi" (1975) darsliklari shular jumlasidandir. Bu ishlarda garchand so'zlarni turkumlarga ajratish, orfografiya va punktuatsiyani o'qitishni til bilimlari bilan uzviy aloqadorlikda amalga oshirish borasida ijobiy fikr-mulohazalar bayon etilgan bo'lsa-da, ammo orfografik va punktuatsion malakalarni takomillashtirish maqsadida qanday mashqlar tizimidan foydalanish, ayniqsa, o'quvchilarning nutqiy malakalarini rivojlantirishda qo'l keladigan ijodiy-amaliy ishlar borasida aniq yo'nalish belgilanmagan. Shuningdek, mazkur ishlarda foydalanish uchun tavsiya etiladigan topshiriqlarning asosiy qismi qayta xotirlash xarakterida ekanligi, o'quvchilarda punktuatsion malakalarni shakllantirish faqat "Sintaksis" bo'limi doirasi bilan chegaralash ona tili o'qitishda lisoniy malakalar bilan nutqiy malakalar o'rtasida nomutanosiblik singari masalalarda ayrim noto'g'ri talqinlar, chalkash fikr-mulohazalar bayon etiladi. Ammo bu o'rinda shuni alohida qayd qilish lozimki, yuqorida tilga olingan ishlarning nashr etilishi o'z davri uchun katta voqea edi.

Respublika umumta'lim maktablarida ona tili, o'zbek tili bo'yicha amalda bo'lgan dasturlarning mazmuni va asosiy yo'nalishlari 1950-yillarning o'rtalarida shakllangan bo'lib, shundan beri ular ayrim o'zgarishlar, to'ldirishlar bilan bugunga qadar kun tartibidan tushgani yo'q. Shu asosda darsliklar yaratildi, ular takror-takror davr sinovidan o'tdi. Bir tomondan qaraganda bu boradagi ishlar takomillashib, mukammallashib borganga o'xshab ko'rinadi. Biroq ijtimoiy hayotimizda keyingi chorak asrdan ko'proq o'tgan vaqt mobaynida siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, ma'rifiy jihatdan keskin o'zgarishlar ro'y berdi; milliy dunyoqarashimizda, shu bilan bog'liq shaxs tarbiyasiga munosabat masalasida yangilanishlar kuzatildi; mustaqillik mafkurasi jamiyatning har bir a'zosi, har bir sohasi oldiga yangicha talablarni qo'ydi. Jamiyatimizda ulkan o'zgarishlar ro'y berdi va ro'y bermoqda. Shunday o'zgarishlar sirasida o'zbek tilshunosligi va uning tadriji bilan bog'liq yangilanishlar ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Jumladan,

o‘zbek tilshunosligida tilni umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab xarakteridagi tizim; nutqni esa alohidalik, hodisa, voqelik, oqibat sifatida o‘rganuvchi substansial tilshunoslik yo‘nalishi shakllandi, rivojlandi, ulkan yutuqlarni qo‘lga kiritdi. Bu yutuqlar o‘z navbatida maktab darsliklarida o‘z aksini topmoqda.

1970-80 yillar ona tili ta'limida muhim bosqich sanaladi. Bu davrda ta'limni kundalik turmush, hayot bilan bog‘lashga e'tibor ancha kuchaydi. Ona tili darslarida imlo savodxonligi, so‘z boyligini oshirish, nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga ahamiyat qaratildi. Bu davrda yaratilgan darsliklarning muhim xususiyati – o‘quvchilarning aqliy faoliyatini kuchaytirishga qaratilganidir.

Mustaqillik yillarida ham aynan 1970-80 yillarda yaratilgan darsliklarning nazariy qismi deyarli saqlab qolindi. Ayrim chalkash nazariy qoida va me'yorlar soddalashtirildi. Lekin baribir ona tili darslarining asosiy qismida nazariy ma'lumotlar o‘rgatildi. O‘quvchilarni oliy o‘quv yurtlariga tayyorlovchi soha sifatida qarash davom etdi. Faqat mashq va topshiriqlardagi misollargina milliy istiqlol g‘oyasiga hamohang tarzda milliy an'ana va madaniyatimizga mos jumlalar bilan to‘ldirildi. [2.523]

2019-yilga qadar ishlab chiqilgan ona tili darsliklarida asosan nazariy ma'lumotlarga e'tibor qaratilgan. Tilshunoslikning fonetika, orfoepiya, orfografiya bo‘limlari 5-sinfda, morfemika va morfologiya bo‘limlari esa 6-7-sinflarda, sintaksis va frezeologiya bo‘limlari 8-sinfda, qo‘shma gaplar sintaksisi va punktuatsiya bo‘limlari 9-sinfda, uslubiyat 10-sinfda, nutq madaniyati esa 11-sinf darsliklarida o‘z aksini topgan. Ushbu darsliklarda o‘quvchilarga keng ko‘lamli nazariy ma'lumotlar berilgan. Bu esa o‘quvchilarning grammatika bo‘yicha bilimlarini kengaytiradi va mustahkamlaydi, o‘quvchini OTMga kirish imtihonlariga har jihatdan tayyorlaydi. O‘quvchining nazariy bilimlari keng bo‘lgani quvonarli hol, albatta. Lekin masalaning ikkinchi tomoni borki, bu og‘zaki nutq muammosi. O‘quvchi har jihatdan grammatikani mukammal bilishi mumkin, ammo uni boshqa odamlarga ham yetkaza olishi, fikrlarini bayon etishda sodda va aniq ifodalardan foydalanishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur masalaning yana bir jihati borki, har qanday sharoitda ham ona tili o‘qituvchilari mazkur bo‘limni o‘z imkoniyat va salohiyatlaridan kelib chiqib tushuntiradilar. Odatda, o‘quvchi uchun o‘z ona tilining hamma so‘zlari ham talaffuz va imloda qiyinchilik tug‘diravermaydi. Mahalliy til hisoblangan sheva ta'sirida ayrim so‘zlarning aytilishi hamda yozilishida chalkashliklar, xatolar bo‘lishi mumkin. Bunday vaziyatlarda amalda qo‘llanilayotgan topshiriq xarakteridagi mashqlar bilan qancha ko‘p ishlansa ham, kutilgan natijaga erishish qiyin kechmoqda.

2022-2023 o‘quv yilida ta'lim jarayoniga tadbiq etilgan 6,7,10-sinf ona tili darsliklari haqida fikr yuritar ekanmiz, avvalgi nashrlardan tubdan farq qilishini alohida ta'kidlash zarur. Darsliklar ilmdagi eng so‘nggi kashfiyotlar, ijtimoiy hayotdagi yangi muammolar va ularning sabablarini tahlil etishga yo‘naltirilgan matnlar bilan qurollantirilgan. 7-sinf ona tili darsligidan o‘rin olgan shoir E.Vohidovning “So‘z latofati” kitobidan keltirilgan parchalar [3.13]

o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish bilan bir qatorda, nutqimizda keng iste'molda bo‘lgan so‘zlarning asl ma'nosi, hozirgi kunda ma'no torayishi yoki kengayishi natijasida kasb etgan ma'nolari yuzasidan baxs yuritishga imkon beradi.

Yangi avlod darsliklari o‘quvchilarni fikrlashga, dunyoqarashlarini kengaytirishga, muammolar oldida ojiz qolmaslikka, hayotda o‘z so‘ziga va qarashlariga ega bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalashdek muhim vazifani bajarishda o‘qituvchilar uchun dasturilamal bo‘lib xizmat qilishiga ishonamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Фитрат Абдурауф. Танланган асарлар. IV жилд. –Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2006. – 227-б.
2. Усманова З.И. Она тили дарсликлари такомиллашмоқда. Экономика и социум. №4, 2021. – 521-527.
3. I.Azimova, K.Mavlonova, S.Quronov, Sh.Tursun, N.Hakimova, M.Siddiqov Ona tili. Umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. – T.: Respublika ta'lim markazi, 2022. 224 b.

“IKKI ESHIK ORASI” TAQDIRLAR ROMANI

E.S.Achilova-ChDPU, o‘qituvchi

O‘tkir Hoshimov asarlarining g‘oyaviy bazasini insonning ijtimoiy ma'naviy, ruhiy mohiyati tashkil etadi. Bu uchlik estetik nuqtai nazarning milliy an'analarga munosabat yordamida ijodiy yaxlitlik kasb etadi. Adibning xarakter yaratish mahorati va ularning ruhiy dunyosini kashf etish darajasi an'analarning uzviy aloqadorligi mahsulidir. Ma'lumki, madaniyat tushunchasi har bir xalqning turmush-tarzi, yashash shart-sharoitlari, ijtimoiy-estetik tafakkuri singari kategoriyalarni qamrab oladi.. Mentalitetga xos xususiyatlar milliy qadriyatlar timsolida hayot o‘sish o‘zgarishlarining ulkan ma'naviy patensialini jamlaydi. Aniqrog‘i, psixologik kechinmalar va boy tajribalarning sintezi tarzida paydo bo‘ladigan hamda rivojlanadigan an'ana xalqning betakror ruhiy olami butunligini ta'minlaydi. Bu betakror ruhiy olam ijodkor botinida ham aks sado beradi. Shu ma'noda har bir adib izlanishlarida milliy motivlar va ulardan foydalanish darajasi chuqur nazariy bilim hamda adabiy mahorat mushtarakligiga borib taqaladi. Negaki, muayyan aqidaning asarda qo‘llanishi mazmunning salmoqdorligi va realligini belgilaydi.

Yozuvchining “Ikki eshik orasi” romanida odamlar taqdiri bilan qiziqish ustun. Qahramonlar taqdiri talqinida hamisha romandagi bosh konsepsiyadan,ya'ni odamlar qismatidagi urush bilan aloqador jihatlardan kelib chiqib ish ko‘radi.Umar zakunchi obrazini va boshqa ayrim personajlarni mustasno etganda,qolgan barcha qahramonlar qandaydir urush jafosini chekkan urush odamlaridir. Muzaffar urush davri chigalliklari tufayli tirik yetimga aylandi,ko‘p jabr-sitamlarni boshdan kechiradi va pirovardida uning sevgi fojeasi ham urush keltirgan chigalliklarga borib taqaladi. Sevgilisi Munavvar urush qoldirgan ma'naviy jarohatlar qurboni bo‘ladi.Tuqqan onasi Ra'no urush to‘zonlari ichra dovdirab,yo‘ldan toyib hayot

	S.O'.Odiljonova, UzSWLU		
9	G.Mamadaliyeva, NamDU	So'fizoda — zamon ruhiga hamohang yumorist	35
10	G.P.Nazarova, R.Bafoeva, Buxoro DU	O'zbek va ingliz maqollarining jamiyatdagi tutgan o'rni va ularning o'rganilganlik darajasi	37
11	Sh.Isakova, QDPI	Zamonaviy fan-ta`lim: muammo va yechimlar	40
12	N.K.Tojibayeva, Doctor of Pedagogical Sciences (PhD)	Pedagogical conditions for the development of management skills in students	44
13	Ibrokhimova Markhabo, Ulugbek kizi Student of the 3rd English faculty Uzbekistan State World Languages University, Shukurova Shokhsanam Kakhramon kizi	Varieties of interactive teaching methods in teaching foreign languages	54
14	A.V.Urazqulova, Qo'qon DPI	Pushkin asarlarining o'zbek tiliga tarjimasi tarixidan	58
15	R.B.Usmonova, ChDPU	Maktabda ona tili darsliklari tadriji	60
16	E.S.Achilova, ChDPU	"Ikki eshik orasi" taqdirlar romani	63
17	Sh.Almamatova, M.H.Mamatqulova, JDPU	Ilmga baxshida umr	65
18	Г.Атаджанов, ЧДПУ	Бадиий таржимада ички монологнинг берилиши (к.каримовнинг "оғабий" романи мисолида)	68
19	M.A.Fayzullaeva, a 1st-year master's student at the Faculty of Pedagogy of the Chirchik State Pedagogical University of the Tashkent region	Digitalization in the education system of our country and educational opportunities in the digital world	70
20	N.A.Raxmanova, ChDPU	XVI-XIX asr o'rtalarigacha bo'lgan davrda o'zbek matnshunosligi rivoji	76
21	Sh.B.Xo'jayeva,	O'tkir hoshimovning "ikki eshik orasi"	80